



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI KO'P MA'NOLI SO'ZLAR

Hoshimova Farangis Qobil qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16760837>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligidagi ko'p ma'noli so'zlarning vujudga kelishi, ularning ishlatilish o'rinlari hamda strukturasi haqida fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar: Polisemiya, turkologiya, omonimiya, metafora, lingvistik ta'sir, evfemizm, disfemizm, ko'chma ma'no, Baxtiyor Abdushukurov "Qissasi Rabg'uziy leksikasi" asari, struktura.

Annotation: This article provides insights into the emergence, use and structure of polysemous words in Uzbek linguistics.


Keywords: Polysemy, turkology, homonymy, a metaphor, linguistic influence, euphemism, dysphemism, Bakhtiyor Abdushukurov's work "The Lexicon of the Story of Rabguz", structure.

Dunyo xalqlari orasida o'zining boy va rang-barang badiiy og'zaki ijodiy merosga egaligi bilan O'zbek xalqi boshqa xalqlardan ajralib turadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir"- deydi¹. Shu tufayli, o'zbek tilini ilmiy jihatdan o'rganish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

So'zning ko'p ma'no anglatishi tilda mustaqil tizim bo'lib, umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan nomlanadi. So'z dastlab bir ma'noni atash uchun qo'llanilib, davrlar o'tishi va turli lingvistik ta'sirlar vositasida bir necha ma'noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi.

Turkologiyada ko'p ma'noli so'zlar bir qator ishlarda yoritilgan. O'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni vujudga keltiruvchi hodisalarning ko'pi shu tilning o'ziga xosdir. Ammo bu hodisaning shundaylari ham borki, ularni deyarli barcha tillarda uchratish mumkin. Shuning uchun ham "tilshunoslikka kirish" uchun bag'ishlangan barcha darsliklarda bu haqda aytilgan fikrlar uchraydi.

Tilshunoslikda ko'p ma'noli so'zlarni vujudga keltiruvchi birdan-bir hodisa ko'chma ma'noning hosil bo'lish hodisasi deb ko'rsatiladi. Haqiqatda ham ko'chma ma'no hosil bo'lishi ko'p ma'noqlikning yuzaga kelishi uchun asosiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ba'zi tilshunoslar ma'no kengayish hodisasini






ham ko'p ma'nolikning yuzaga kelishi uchun sabab bo'luvchi hodisalardan biri deb qaraydilar. Biroq bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ko'p ma'nolikning yuzaga kelishi birdan ortiq leksik ma'noning hosil bo'lish natijasi bo'lgani holda, ma'no kengayishi faqat birgina ma'noning ichki o'zgarishidir. Ular alohida semantik hodisalar ekani tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Ya'ni ko'p ma'noli so'z bir so'z hisobida birdan ortiq leksik ma'no yuzaga kelishi hisobiga vujudga kelgan bo'lsa, ma'no kengayishi esa faqat ma'lum ma'no doirasidagina sodir bo'ladi. O'sha ma'no anglatgan tushuncha doirasi kengayadi.

So'zlarning yangi ma'no orttirilishi hisobiga taraqqiy etishi ko'p ma'nolik uchun asos bo'ladi. So'zlarning yangi ma'no orttirilishi faqat ko'chma ma'no hosil bo'lishi hisobiga emas, evfemizm va disfemizm hisobiga ham sodir bo'ladi. Bu ham tilshunoslikda qayd etilgan. Biroq keltiruvchi hodisa sifatida keltirilmagan. Buning o'z sababi bor. Chunonchi, evfemizm va disfemizm natijasida, ba'zi adabiyotlarda trop (okkozional ma'no)lar hosil bo'ladi, deyilsa, ba'zilarida uslubiy vositalar yuzaga keladi, deb ko'rsatiladi. Aslida bu fikrlarning har ikkisida ham bir narsani, ya'ni evfimizm ham, disfemizm ham okkozional ma'nolarni hosil qilishi nazarda tutilgan. Okkozional ma'no esa polisemantik so'zlarni vujudga keltirmasligi tilshunoslikda asoslab berilgan.

Til birliklarining ko'p ma'noligi aloqa jarayonida sanoqli til vositalari yordamida son-sanoqsiz mazmunlarni (ma'nolarni) ifodalashda insonlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Ko'p ma'nolilik tilga xos ijobiy hodisa bo'lib, u aloqa jarayonida insonlarga xalaqit bermaydi, balki yordam beradi.

Baxtiyor Abdushukurov "Qissasi Rabg'uziy leksikasi" asarida polisemiyalarga alohida to'xtalib o'tadi. Qissa tilidagi polisemiya hodisasini tatqiq etishda bir qancha an'analarga tayanadi. So'z ma'nolarini o'rganishning xilma-xil yo'llari bor. Shulardan biri so'zning semantik strukturasi ma'noli qismlarga ajratib tahlil qilishdir. Ko'p ma'noli leksemlarning har bir sememasini semalarga ajratib tatqiq etish ularning leksik ma'nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi. Sememaning mazmuni faqat leksik ma'nodangina iborat bo'lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar kiradi, bularning barchasi semantik strukturani tashkil qiladi.

So'zning leksik ma'nosi umumiy va farqlovchi semalarning o'zidangina tashkil topmaydi. Leksik ma'no tarkibida ikkinchi darajali, hatto fakultativ semalar ham bo'lishi mumkin. Bunday semalar qo'shimcha semalar deb yuritiladi. Ma'lumki, tilshunoslikda leksik ma'nolar bosh va hosila ma'nolarning ajratiladi. Bosh ma'no leksemaning boshqa ma'nolari taraqqiyotiga asos bo'ladi.





Shu o'rinda unutmash kerakki, hosila ma'nolarning hammasi ham bosh ma'noga bog'lanishi shart emas.

Sir emaski, nutqimizda ko'pgina so'zlar bir necha sememalarda ishlatiladi. Muayyan leksema ifodalaydigan ma'nolar yig'indisi mazkur so'zning sememalarning mundarijasini tashkil etadi. Semema til birligi sifatida abstrakt hodisa. Semema nutqda boshqa leksemalar (sememalar) qurshovida keladi. Mana shunday qurshov leksik qurshov deyiladi.

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. Demak, so'zlarning ko'p ma'noliligi — polisemiya til boyishida o'z o'rniga ega. Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat jihatdan o'rganishdi. Tilshunoslarning qayd etishicha, bu masala bilan xitoy va hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug'ullanishgan. O'rta Osiyoning buyuk leksikografi Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining mashhur "Devonu lug'atit turk" kitobida turkiy polisemantik so'zlarni qayd etadi.

Polisemiya inson bilimining xarakteri bilan bog'liq ekan, turli xalqlardagi bilim xarakterining har xilligi ham o'sha xalq tilidagi polisemiyalarda o'z aksini topadi. Aniqroq qilib aytsak, polisemiya milliy xarakterga ega bo'ladi. Leksik ma'nolarning, tilshunoslikda tan olinganidek, milliy xarakterga ega bo'lishi polisemantik so'zlarda o'z aksini topmasdan iloji ham yo'q. Chunki polisemantik so'zlar leksik ma'nolar hisobigagina tarkib topadi. Masalan, "tutilmagan" degan leksik ma'no turli tillarda turli so'zlarining semantik strukturasiga oid holatda hosil bo'lgan. O'zbek tilida u "yangi" so'zining semantik strukturasiga kiradi: yangi daftar. Rus tilida esa "чистый" so'zining semantik strukturasiga kiradi: "чистая тетрадь". Vaholanki, "чистый" so'zi o'zbek tiliga genetik ma'nosi asosida tarjima qilinsa, "toza" so'ziga tengdir. O'zbek tilida esa mazkur leksik ma'noni "toza" so'zi orqali ifoda etib bo'lmaydi. Agar "toza daftar" birikmasini tuzsak, u "yangi daftar" birikmasi kabi ma'no ifoda etmaydi. Chunki o'zbek tilida nihoyatda ozodalik bilan yozib to'ldirilgan daftar ham toza daftar deb atalaveradi. Demak, o'zbek tilida toza so'zi "kirlanish" ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan ma'noni ifoda eta olar, ammo tutilmagan leksik ma'nosini ifodalay olmas ekan.

Biror tilda polisemantik so'zlar vujudga kelish imkoniyatlarining ko'p bo'lishi va tilda polisemiyaning nihoyatda, taraqqiy etganligi fikr ayirboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug'dirmaydi. Qaysi bir xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at, taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalq obyektiv borliqning o'zaro





aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga ko'proq qiyos etadi va bular tilida ko'proq o'z aksini topadi. So'z ma'nolarini o'zgartirib turuvchi taraqqiyotlar ketma-ket sodir bo'lib turadi. Bu esa polisemantik so'zlar taraqqiyoti uchun sabab bo'ladi, ya'ni insonning o'z atrofini o'rab turgan borliqni umumlashtira olishi bilan bog'liq holatda polisemiya mavjud va taraqqiy etadi.


Kattaroq ko'lamda omonimiya bir xil bo'lgan so'z sifatida tavsiflanadi shakl yoki boshqa so'z bilan tovushda (gomofon sifatida) yoki imloda, yoki ikkalasi ham, lekin undan ma'no jihatidan farq qiladi. Omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisalardan biri polisemiyaning taraqqiyoti natijasidir. Demak, polisemiyaning taraqqiyoti ba'zan omonimiya hodisasiga olib keladi. Mana shu ba'zi o'tishi ma'lum tilda belgilab chiqish bir biriga mos bo'lmagan fikrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. V.I.Abayev "Bu ikki hodisa ma'nolari o'rtasida hech qanday yiroqlashish bo'lmaydi va omonimlarning polisemantik so'zlardan kelib chiqishi uchun ham asos emas.

Polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi omonimlarning vujudga kelishi uchun asos bo'la oladi. Agar polisemantik so'z ma'nolari quyidagi yo'llar bilan taraqqiy etsa, uning ma'nolari o'rtasidagi aloqa uziladi, ya'ni u birdan ortiq so'zga differentsatsiya bo'lib, omonim vujudga keladi. Leksik ma'nolarning tobelilik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'z ma'nolari o'rtasidagi aloqaning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Polisemantik so'z ma'nolari faqat bosh ma'no taraqqiyotidagina iborat bo'lmay, balki bosh ma'nodan hosil bo'lgan ko'chma ma'nodan ham hosil bo'ladi. So'z ma'nolarinnng bunday hosil bo'lishi jarayonida oraliqdagi biror ma'no vazifadoshlikning natijasi bo'lib qoladi. Vazifadoshlik yo'li bilan ko'chma ma'no hayotda eskirib qolgan nomdoshlanuvchining nomdoshlovchini siqib chiqarib yuborishi natijasida hosil bo'ladi. Natijada, nomdoshlovchini ifoda etuvchi ko'chma ma'no yo'qolib, uning o'rniga nomdoshlanuvchini ifoda etuvchi boshqa ko'chma ma'no qoladi. Bu esa avvalgi ko'chma ma'nolar bilan siqib chiqarib yuborilgan ko'chma ma'nodan keyingi vazifadoshlik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'no o'rtasida aloqa, ya'ni bog'liqlikning uzilishiga sabab bo'ladi. Polisemantik so'z vazifadoshlik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'no oldidan differentsatsiyaga uchrab, omonim vujudga keladi².

Mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi.

² Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –T: Mumtoz so'z, 2010. – B. 288.





2. ko'p ma'noli so'z bir so'z hisobida birdan ortiq leksik ma'no yuzaga kelishi hisobiga vujudga kelgan bo'lsa, ma'no kengayishi esa faqat ma'lum ma'no doirasidagina sodir bo'ladi. O'sha ma'no anglatgan tushuncha doirasi kengayadi.

3. Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. Demak, so'zlarning ko'p ma'noliligi — polisemiya til boyishida o'z o'rniga ega.

Polisemiyaning taraqqiyoti ba'zan omonimiya hodisasiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov M. Semasiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008. B.5
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2022. – B.87
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –T: Mumtoz so'z, 2010. – B. 288.
4. Rahmatullayev Sh. Semema- mustaqil til birligi // O'TA, 1984.Nº5. B. 18; Rahmatullayev Sh, Yunusof R. Sememalarning semalar sostavi va semantic bog'lanish haqida // O'TA, 1974. Nº1; Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992. – B. 173-147

